

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETIDA OLIY MA’LUMOTLI KADRLAR  
TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI  
TO‘G‘RISIDA**

Respublika hududlari va agrar soha tarmoqlarining oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda 2017/2018 o‘quv yilidan boshlab qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalariga hududlar bo‘yicha maqsadli qabul tashkil etildi.

Toshkent davlat agrar universitetining Termiz filialini tashkil etilishi mamlakatimiz janubiy mintaqasining agrar sohasi uchun oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash imkoniyatini yaratdi.

Ta’lim jarayonining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash maqsadida akademik litseylar tegishli oliy ta’lim muassasalari tasarrufiga o‘tkazildi, soha uchun oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda agrar tarmoqlar ishtirokini kengaytirish choralari belgilandi.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi sohasida kadrlar tayyorlash borasida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Bunda:

birinchidan, agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, jadallik bilan joriy etilayotgan zamonaviy intensiv, resurstejamkor texnologiyalar hamda ilg‘or tajribalar fan dasturlarida o‘zining aksini topmaganligi, ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha zamonaviy talablar asosida yaratilgan metodik ta’minotlar bilan to‘liq ta’minlanmaganligi hamda universitetning o‘quv-laboratoriya bazasi ma’nan va jismonan eskirganligi natijasida talabalar zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmayotganligi sababli bitiruvchilarning mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashishida muammolar mavjud;

ikkinchidan, mutaxassislar tayyorlash yuzasidan ehtiyojlar chuqur tahlil qilinmaganligi oqibatida sohada ilg‘or agrotexnologiya, innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish kabi yo‘nalishlarda oliy ma’lumotli kadrlar yetishmasligi yuzaga keldi;

uchinchidan, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati, kasbiy bilim darajasi, shuningdek, amaliy tajribalarini doimiy oshirib borish mexanizmlarini joriy etish, ularning kasbiy salohiyatini oshirishda xorijiy ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarining ilg‘or tajribalaridan samarali foydalanilmayapti;

to‘rtinchidan, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi ta’minlanmaganligi, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning tizimli tashkil etilmaganligi, qishloq xo‘jaligi sohasidagi olib borilgan ilmiy izlanishlarning sohadagi mavjud dolzarb ilmiy muammolar yechimlariga qaratilmaganligi oqibatida ilmiy faoliyatning samaradorligi pastligicha qolmoqda;

beshinchidan, talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini qishloq xo‘jaligi ekinlarining agrotexnik tadbirlari mavsumiga moslashtirilmaganligi va samarali tashkil etilmaganligi oqibatida bitiruvchilarning amaliy ko‘nikmalari talab darajasida emas.

Qishloq xo‘jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, oliy ta’lim muassasalarining mavjud salohiyatidan samarali foydalanishni tashkil etish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ilmiy va ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy qilish, soha uchun yuksak malakali kadrlar tayyorlash maqsadida:

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6217-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

3. Quyidagilar:

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(3-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

Toshkent davlat agrar universitetida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha yo'l xaritasi **2-ilovaga** muvofiq;

Toshkent davlat agrar universiteti va uning Andijon, Nukus, Termiz filiallariga davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, viloyatlar hokimliklarining buyurtmalariga asosan 2018/2019 o'quv yili uchun davlat granti hamda to'lov kontrakt asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qabul kvotasi **3-ilovaga** muvofiq;

2018/2019 o'quv yilida Toshkent davlat agrar universiteti bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga davlat granti asosida maqsadli qabul kvotasini kadrlar buyurtmachilarining takliflariga asosan respublika hududlari bo'yicha taqsimoti **3a-ilovaga** muvofiq;

2018-2019-yillarda Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallarida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlari parametrlari **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallarida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan belgilangan tartibda ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

*(3-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(4-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari ustavlarini ikki oy muddatda tasdiqlanishini va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin.

6. Qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tugatilsin va uning funksiyalari hamda u uchun nazarda tutilgan moliyalashtirish manbalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilsin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini, shu jumladan, kreditorlik va debitorlik qarzdorligini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilishini ta'minlasin.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va Suv xo'jaligi vazirligi qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi oliy ta'lim muassasalari obyektlarini qurish va jihozlash bo'yicha boshlangan ishlarning oxiriga yetkazilishini ta'minlasin.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda:

Toshkent davlat agrar universiteti tarkibidan chiqarilayotgan Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tahlil qilgan holda uning idoraviy mansubligini aniqlasin;

qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi oliy ta'lim muassasalari huzuridagi fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazlari faoliyatini tanqidiy qayta ko'rib chiqib, fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish choralarini ko'rsin.

8. 2018/2019 o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat agrar universitetining magistratura mutaxassisliklariga qabul O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun to'liq davlat granti asosida amalga oshirilsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

9. Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining kadrlar buyurtmachilari ro'yxati va ularga taqsimlangan talabalar soni 5-ilovaga hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining amaliyot o'tash obyektlariga birlashtirilishi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

*(9-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6217-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son)*

10. Quyidagilar Toshkent davlat agrar universiteti va uning Andijon, Nukus, Termiz filiallarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha kadrlar buyurtmachilarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

korxonalar va tashkilotlar obyektlarida talabalarining amaliyotini tashkil qilish va ustoz-shogird tizimi asosida o'tilishini ta'minlash hamda talabalarni ishlab chiqarishning yangi me'yoriy hujjatlari, zamonaviy axborot dasturiy ta'minot mahsulotlari bilan yaqindan tanishtirish;

ishlab chiqarish korxonalar va tashkilotlaridan tayinlangan malakaviy amaliyot rahbarlariga asosiy ish joyidan qo'shimcha ish haqlarini tayinlash;

manfaatdor vazirlik va idoralar tasarrufidagi boshqarmalar va ularning tarkibidagi korxonalar va tashkilotlardan malakali, tajribali mutaxassislarni ta'lim jarayonida ishtirokini ta'minlash;

korxonalar va tashkilotlarda professor-o'qituvchilarning stajirovkalari uchun shart-sharoitlar hamda kafedralarning filiallarini tashkil etish va amaliy mashg'ulotlar o'tish imkoniyatini yaratish.

Kadrlar buyurtmachilari talaba bilan o'qishni bitirganidan so'ng 5 yil ishlab berish majburiyatini belgilovchi shartnoma tuzish orqali uning bazaviy to'lov kontraktini 2-bosqichda kamida 50 foiz, 3-bosqichda kamida 75 foiz va 4-bosqichda 100 foiz miqdorda to'lab berishi mumkinligi qayd etilsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

11. Toshkent davlat agrar universitetining Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUK o'rnida "Axborot-maslahat markazi (extension center)" DUK tashkil etilsin.

*(11-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

"Axborot-maslahat markazi (extension center)" DUKning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

*(11-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

markaz hududida talabalarining malakaviy amaliyotlarini o'tkazish, ularning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash orqali malaka va ko'nikmalarini shakllantirish;

Toshkent davlat agrar universitetining professor-o'qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari va iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot tajribalarini olib borishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ilmiy-tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish;

qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ilmiy salohiyatli kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan xalqaro va davlat grantlari doirasida ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish;

qishloq xo'jalik ekinlarining kolleksiyalarini yaratish, mevali va manzarali daraxtlarning ko'chatlarini tayyorlash;

fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari hamda ishlab chiqarish korxonalariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash bo'yicha muntazam ravishda maslahatlar, tavsiyalar berib borish.

12. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

*Oldingi tahrirga qarang.*

Nukus pedagogika kollejining Nukus shahri, P. Seitov ko'chasi, 12-uy manzilida joylashgan binosining Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialiga bir oy muddatda belgilangan tartibda

bepul berilishini hamda O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan belgilangan tartibda ajratiladigan mablag‘lar hisobidan kapital ta‘mirlanishini ta‘minlasin.

*(12-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

ikki oy muddatda Andijon viloyati hokimligi bilan birgalikda tugatilayotgan Andijon qishloq xo‘jaligi institutining Andijon viloyati, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Oliygo‘h ko‘chasi, 1-uy manzilida joylashgan bino va inshootlari, tegishli hududi, o‘quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, o‘quv adabiyotlari hamda boshqa mol-mulki Toshkent davlat agrar universitetining Andijon filialiga belgilangan tartibda bepul berilishini ta‘minlasin;

tugatilayotgan Andijon qishloq xo‘jaligi institutining 2017/2018 o‘quv yilida tegishli ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarida tahsil olayotgan talabalariga ularning o‘qishini tugatguniga qadar Toshkent davlat agrar universitetining Andijon filialida o‘qishini yakunlash imkoniyatini yaratsin.

13. Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallarini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;  
o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag‘lar;  
xo‘jalik faoliyatidan va shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan tushumlar;  
jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik va xayriya mablag‘lari;  
xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;  
qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

14. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi sohasiga oid dolzarb ilmiy-texnik muammolar bo‘yicha fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ilmiy-tadqiqot muassasalarining Toshkent davlat agrar universiteti bilan o‘zaro muvofiqlashgan va uzviy hamkorligini ta‘minlash hamda ilmiy ishlanmalarning natijadorligini oshirish yuzasidan zaruriy choralarni ko‘rsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda Andijon qishloq xo‘jaligi instituti tugatilishi munosabati bilan uning ishdan bo‘shaydigan xodimlarini o‘rnatilgan tartibda ishga joylashtirib borish choralarni ko‘rsin.

16. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Adliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchisi R.S. Kasimov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari Q.V. Akmalov va Z.T. Mirzayev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 8-may,  
PQ-3704-son

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1a-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

(1b-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(1v-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi PF-6031-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 06/20/6031/1088-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PQ-3704-son qaroriga  
2-ILOVA

**Toshkent davlat agrar universitetida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha**

**YO'L XARITASI**

| T/r   | Tadbirlar mazmuni  | Amalga oshirish mexanizmi   | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish u mas'ulla   |
|---|--|---|---------------------|----------------------------|---|
| <b>I. Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallarining faoliyatini tashkil etish</b>                              |  |   |                     |                            |   |
| 1.  | Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallarining Ustavlarini ishlab chiqish, belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish.  | 1. Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallarining Ustavlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.   | 2018-yil 15-iyun    | -                          | Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallarining                    |
|   |  | 2. Ustavlarni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlash.  | 2018-yil 25-iyun    |                            | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining                                     |
|   |  | 3. Tasdiqlangan Ustavlarni hududiy "Yagona darcha" markazlaridan davlat ro'yxatidan o'tkazish.  | 2018-yil 20-iyul    |                            | Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallari hamda hokimiyat organi |
| <b>II. Agrar sohasi uchun kadrlar tayyorlashga bo'lgan talabni va ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmini shakllantirish</b> |  |   |                     |                            |   |
| 2.  | Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda kadrlar iste'molchilarining talablari, soha bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, yuqori unumli va resurstejamkor texnologiyalar o'z aksini topgan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, | 1. Rivojlangan xorijiy tajribalar asosida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish | 2018-yil 1-iyun     | -                          | Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallarining                    |

| T/r | Tadbirlar mazmuni  | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari  | Bajarish u mas'ullar   |
|-----|--|--|---------------------|---|--|
|     | o'quv rejalari va fan dasturlarini qayta ishlab chiqish, o'rnatilgan tartibda tasdiqlash hamda o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish.   | maqsadida universitet buyrug'i asosida ishchi guruh tuzish.  |                     |   |  |
|     |  | 2. Ishchi guruhlar tomonidan qiyosiy tahlillar asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va o'quv rejalari, fan dasturlarini asosiy kadrlar iste'molchilari bilan kelishuv dalolatnomasini tuzish. | 2018-yil 15-iyun    |   | Toshkent davlat universiteti manfaatdor vazirlar idoralari                       |
|     |  | 3. Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari o'quv rejalari va fan dasturlarini Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlash.  | 2018-yil 30-iyun    |   | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  |
|     |  | 4. Tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga tatbiq etish.  | 2018-yil 3-sentabr  |   | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat universiteti va filiallari |
| 3.  | Yangidan tashkil etilayotgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik adabiyotlar, axborot materiallari (shu jumladan, ularning elektron variantlari), maxsus davriy nashrlar bilan ta'minlash. | 1. Yangi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha fanlar ro'yxatini tuzish  | 2018-yil 15-iyun    | -   | Toshkent davlat universiteti va filiallari                                       |
|     |  | 2. Fanlar ro'yxati asosida zaruriy mahalliy va xorijiy adabiyotlar hamda   | 10-iyul             | Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, xo'jaligi vazirligi Moliya vazirligi      |

| T/r | Tadbirlar mazmuni   | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari           | Moliyalashtirish manbalari   | Bajarish u mas'ullari   |
|-----|---|--|-------------------------------|--|---|
|     |   | maxsus davriy nashrlarni xarid qilish.   |                               | muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari | Toshkent davl universiteti va filiallar                             |
|     |   | 3. Yangidan tashkil etilayotgan ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv-metodik adabiyotlar, axborot materiallarini yaratish bo'yicha sohaning yetuk mutaxassislari hamda sohaga oid xorijiy oliy ta'lim muassasalarining olimlari tarkibidan iborat ijodiy Ishchi guruh tashkil etish. | 2018-yil 20-iyun              | -  | Toshkent davl universiteti va filiallar                             |
|     |   | 4. Yangidan tashkil etilayotgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik adabiyotlar, axborot materiallarini yaratish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.  | 2018-yil 30-iyun              |  | Oliy va o'rta ta'lim vaziri Toshkent davl universiteti va filiallar |
|     |   | 5. Nashr uchun tayyorlangan o'quv-metodik adabiyotlarni sifatli chop etish.  | 2019 — 2021-yillar            | Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari  | Oliy va o'rta ta'lim vaziri Toshkent davl universiteti va filiallar |
| 4.  | Agrar soha va respublika hududlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini | 1. Manfaatdor vazirlik va idoralar, mahalliy   | har yili noyabr-dekabr oylari | -  | Toshkent davl universiteti va filiallari                            |

| T/r | Tadbirlar mazmuni   | Amalga oshirish mexanizmi   | Bajarish muddatlari        | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish u mas'ullar   |
|-----|---|---|----------------------------|----------------------------|--|
|     | inobatga olgan holda yangi istiqbolli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.   | davlat hokimiyat organlarining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari, kasblarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash uchun murojaat qilish, ular bilan uchrashuvlar o'tkazish.<br>2. Manfaaddor vazirlik va idoralarning takliflari asosida keyingi o'quv yillari uchun qabul kvotalarini shakllantirish hamda tegishli vazirliklarga taqdim etish. | 20-dekabr                  |                            | manfaaddor va idoralar, mahalliy hokimiyat org<br>Oliy va o'rta m ta'lim vaziri Iqtisodiyot va mahalliy da hokimiyat org Toshkent davl universiteti va filiallar |
| 5.  | Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari va kadrlar iste'molchilarining talablari asosida yangidan tashkil etiladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"ga kiritish. | 1. Yangidan tashkil etiladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"ga kiritish bo'yicha takliflarni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etish.<br>2. "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"ga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish.  | 2018-yil 15-may<br>15-iyun | -                          | Toshkent davl universiteti va filiallar<br>Oliy va o'rta m ta'lim vaziri   |
| 6.  | O'quv jarayonida zarur bo'ladigan qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalarning namunalari, maketlari va ko'rgazmali o'quv vositalari, sohaga oid dasturiy   | 1. O'quv jarayoniga zarur bo'ladigan o'quv-yordamchi jihozlar hamda chop etiladigan o'quv   | 2018-yil 10-avgust         | -                          | Toshkent davl universiteti va filiallar  |



| T/r | Tadbirlar mazmuni  | Amalga oshirish mexanizmi   | Bajarish muddatlari   | Moliyalashtirish manbalari   | Bajarish u mas'ullari   |
|-----|--|---|---|--|---|
|     | mahsulotlar, trenajyorlar, joriy etilayotgan zamonaviy texnologiyalar bo'yicha yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini chop etish, multimediya mahsulotlarini yaratish va xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarini moliyalashtirish.  | adabiyotlarining ro'yxatini shakllantirish.<br>2. O'quv-yordamchi jihozlarini xarid qilish hamda o'quv adabiyotlarni chop etish.  | 2018-2019 yillar  | Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, homiylik mablag'lari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlari | Moliya vazirligi, Oliy va o'rta ta'lim va tibbiyot manfaatdor vazirligi idoralari   |
| 7.  | Talabalarning malakaviy amaliyotlarini ilg'or texnologiyalarga ega korxonalar, tashkilot va fermer xo'jaliklarida tashkil qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yosh mutaxassislarni o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishga joylashtirish tadbirlarini o'z ichiga olgan hamkorlik shartnomalarini tuzish. | 1. Talabalarning malakaviy amaliyotlarini tashkil etish maqsadida ilg'or texnologiyalarga ega korxonalar, tashkilot va fermer xo'jaliklari ro'yxatini aniqlash.<br>2. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalariga agrotexnik tadbirlarning mavsumiyligini inobatga olib amaliyot muddatini 20 haftadan 30 haftagacha belgilash.<br>3. Korxonalar, tashkilot va fermer xo'jaliklari bilan malakaviy amaliyotlarni o'tkazish va yosh mutaxassislarni | 2018-yil 10-may<br><br>2018-yil 15-iyun<br><br>2018-yil 20-iyul | -  | Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta ta'lim va tibbiyot manfaatdor vazirligi, davlat agrar univ. va uning filiallari manfaatdor vazirligi idoralari |

| T/r | Tadbirlar mazmuni  | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari                         | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish mas'ullari  |
|-----|--|--|---|----------------------------|--|
|     |  | ishga joylashtirish bo'yicha uch tomonlama shartnomalarni tuzish.  |   |                            |  |
|     |  | 4. Hududlar bo'yicha belgilangan korxonalar va tashkilotlar, ilg'or fermer xo'jaliklarida amaliyot o'tovchi talabalar guruhlarini shakllantirish va ta'lim muassasasi, ishlab chiqarishdan mas'ul amaliyot rahbarlarini tayinlash. | har yili 25-avgustgacha                     |                            |  |
|     |  | 5. Amaliyot davrida talabalar uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, ularning mehnatiga haq to'lash, yashash joylari bilan ta'minlash hamda o'qishni tugatgandan so'ng ishga taqsimlash choralarini ko'rish.                     | har yili 20-dekabr                          |                            |  |
|     |  | 6. Hamkorlik shartnomalarga asosan malakaviy amaliyotlarni tashkil etish va monitoringini olib borish.   | Tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida |                            |  |
| 8.  | Oliy ta'lim muassasalarini bitirayotgan kadrlarning o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashishi, o'z yo'nalishlari bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlarida ko'maklashish. | 1. Bitiruvchilar va ish beruvchilar o'rtasida "Karyera kuni" tadbirlarini o'tkazish, bitiruvchilarni ishga joylashishi   | 2018-yil 15-may                             | -                          | Oliy va o'rta ta'lim vaziri, ta'lim vaziri, manfaatdor vaziri, idoralari, Toshkent davlat universiteti va filiallari |

| T/r | Tadbirlar mazmuni  | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari      | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish u mas'ullar  |
|-----|--|--|--------------------------|----------------------------|---|
|     |  | bo'yicha uch tomonlama shartnomalar tuzish.  |                          |                            |   |
|     |  | 2. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi bitiruvchilar uchun biznes reja tuzish bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish.                               | 15-may                   |                            | Toshkent davl universiteti va filiallar                                     |
|     |  | 3. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi bitiruvchilarga biznes rejasi asosida tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish.                               | 25-iyul                  |                            | Tijorat bank manfaatdor vazir idoralari                                     |
| 9.  | Qishloq xo'jaligi sohasida oliy malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish ishlarini jadallashtirish maqsadida tor ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash maqsadida Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlariga yuborish. | 1. Manfaatdor vazirlik va idoralarning ehtiyojidan kelib chiqib iqtidorli va istiqbolli yoshlarni o'qitish maqsadida tor ixtisosliklarni aniqlash.                 | har yili noyabr oyigacha | -                          | Qishloq xo' vazirligi Oliy va o'rta ta'lim vazir manfaatdor vazir idoralari |
|     |  | 2. Ehtiyojlar asosida Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan shartnomalar tuzish hamda o'qishga yuborishni tashkil etish. | 10-iyun                  |                            | Qishloq xo' vazirligi Oliy va o'rta ta'lim vazir                            |
| 10. | Biriktirilgan akademik litseylarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'qituvchilarning salohiyati va malakasini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash.   | 1. Biriktirilgan akademik litseylarning moddiy-texnika bazasi hamda o'qituvchilarning  | 2018-yil 25-may          | -                          | Toshkent davl universiteti va filiallar                                     |

| T/r   | Tadbirlar mazmuni  | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari                                      | Bajarish u mas'ulla   |
|---|--|--|---------------------|---|---|
|   |  | salohiyati va malakasini oshirish bo'yicha takliflarni Kasb-hunar ta'limi markaziga taqdim etish.  |                     |   |   |
|   |  | 2. Akademik litseylarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda o'qituvchilarning salohiyati va malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish. | 20-iyun             | Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari     | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, xo'jaligi vazirligi, hunar ta'limi markazi, Toshkent davlat universiteti va filiallari                |
| <b>III. Ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish</b> |  |  |                     |   |   |
| 11.   | Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini va o'quv jarayonlarini takomillashtirish maqsadida xorijning yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan tizimli aloqalarni kengaytirish va ularning natijadorligini oshirish. | 1. Oliy ta'lim muassasalarining xususiyatidan kelib chiqib xorijiy yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish.             | 2018-yil 3-sentabr  | -   | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsiya rivojlantirish va Toshkent davlat universiteti va filiallari |
|   |  | 2. Xorijiy yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda o'quv adabiyotlarini yaratish, xalqaro grant loyihalarida ishtirok etish.                   | 1-dekabr            | Homiylik mablag'lari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlari |   |
|   |  | 3. Hamkorlikda yaratilgan o'quv adabiyotlarini chop etish  | 2019 — 2021-yillar  | Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari     | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, davlat agrar univ. va uning filiali   |

| T/r | Tadbirlar mazmuni   | Amalga oshirish mexanizmi   | Bajarish muddatlari      | Moliyalashtirish manbalari                             | Bajarish uchinchi mas'ullari   |
|-----|---|---|--------------------------|--|--|
|     |   | 4. Ilg'or texnologiyalarga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda mutaxassislik kafedralarining filiallarini tashkil etish, ishlab chiqarishdagi mavjud muammolarni o'rganish, ilmiy yechimini izlash va amaliy mashg'ulotlar o'tish imkoniyatini yaratish. | O'quv yili davomida      |  | Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy maxsus ta'lim va Tashkilotlar Toshkent davlat universiteti va filiallari, man... vazirlik va id...     |
| 12. | O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Qishloq xo'jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazi tizimidagi sohaga aloqador ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda dolzarb mavzular bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish.                            | 1. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha sohaga aloqador ilmiy muassasalari bilan hamkorlikda dolzarb mavzularda loyihalarni shakllantirish.  | 2018-yil avgust sentyabr | -  | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi akademiyasi, xo'jaligi vazirligi Innovatsiya rivojlantirish va Toshkent davlat universiteti va filiallari |
|     |   | 2. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va iqtidorli yoshlarini ilmiy loyihalarga jalb etish va ishtirokini ta'minlash.  | 20-dekabr                | Davlat grantlari va xo'jalik shartnomalari mablag'lari |  |
| 13. | Ilmiy izlanishlar olib borayotgan doktorantlarni, iqtidorli talaba-yoshlarni sohaning ilmiy muammoli mavzulari bilan shug'ullanishga jalb etish, tadqiqot ishlari uchun ishlab chiqarish tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlarida tajriba-sinov | 1. Ilmiy tadqiqot ishlariga qiziquvchi iqtidorli talabalarni, doktorantlarni ko'p yillik amaliy tajribaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarga "Ustoz-shogird"   | 2018-yil 20-sentabr      | -  | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi Innovatsiya rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot in... Toshkent davlat universiteti va filiallari             |

| T/r | Tadbirlar mazmuni  | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari  | Moliyalashtirish manbalari  | Bajarish mas'ullari   |
|-----|--|--|--|---|---|
|     | ishlari uchun sharoitlar yaratish.   | <p>tizimida biriktirish.</p> <p>2. Ilmiy-tadqiqot muassasalarining tajribali mutaxassisleri tomonidan bajarilayotgan ilmiy muammoli mavzulari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga doktorant va iqtidorli talabalarni biriktirish.</p> <p>3. Doktorant va iqtidorli talabalarga ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlarining laboratoriyalaridan foydalanish, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish.</p> | <p>har yili sentyabr-oktyabr</p> <p>har yili</p>             | <p>Davlat grantlari va xo'jalik shartnomalari bo'yicha tushgan mablag'lar</p> <p>Davlat grantlari va xo'jalik shartnomalari bo'yicha tushgan mablag'lar</p>   | <p>Oliy va o'rta ta'lim vaziri</p> <p>Innovatsiya rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot instituti</p> <p>Toshkent davlat universiteti va filiallari</p>  |
| 14. | Yosh izlanuvchilarga va ilmiy pedagog xodimlarga zarur ijtimoiy sharoitlar yaratish. | <p>1. Turar joyga ehtiyojmand ilmiy va ilmiy pedagog xodimlarga talabalar turar joylaridan joy ajratish.</p> <p>2. Xorijiy davlatlarga stajirovka o'tash va ilmiy anjumanlarda ishtirok etish uchun yuboriladigan talabgorlarning ro'yxatini aniqlash hamda tanlov o'tkazish.</p> <p>3. Tanlov natijalari asosida yosh izlanuvchilar va ilmiy pedagog xodimlarni xorijiy davlatlarga</p>       | <p>2018-yil 3-sentabr</p> <p>15-iyun</p> <p>Yil davomida</p> | <p>Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari</p> <p>Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot markazi, xalqaro ta'lim grantlari, oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari va homiylik mablag'lari</p> | <p>Oliy va o'rta ta'lim vaziri</p> <p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirligi</p> <p>Kengashi, viloyat hokimliklari</p> <p>Mutaxassislarni tayyorlash va vatandoshlar muloqot markazi</p> <p>ta'lim grantlari</p> <p>O'zbekiston yoshlar ittifoqi, manfaatli vazirliklar va i</p> |

| T/r | Tadbirlar mazmuni   | Amalga oshirish mexanizmi   | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Bajarish u mas'ullari   |
|-----|---|---|---------------------|----------------------------|---|
|     |   | stajirovka o'tash va ilmiy anjumanlarga yuborish.   |                     |                            |   |
| 15. | Agrar soha va tarmoqlari bo'yicha fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi davlat qo'mitasi, "O'z paxtasanoat" AJ, "O'z donmahsulot" AK, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, "O'z oziq-ovqatsanoat xolding" va "O'z sharobsanoat" xolding kompaniyalari, "O'z agrokimyohimoya" AJ, "O'z davkarantin" bosh davlat inspeksiyasi, "Parrandasanoat", "O'z bekipaksanoat", "O'z baliqsanoat" uyushmalari va ularning tasarrufidagi zamonaviy innovatsion texnologiya va tizimlar bilan jihozlangan korxonalarda talabalarining malakaviy (texnologik, ishlab chiqarish) amaliyotlarini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish. | 1. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi sohasiga oid korxonalar, tashkilot va muassasalarda o'tkaziladigan o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini manzilli grafigini tasdiqlash. | 2018-yil 20-oktabr  | -                          | Oliy va o'rta ta'lim va ta'lim vazirligi, Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi vazirligi, manfaatdor vazirlar idoralari, ilmiy-institutlar, Toshkent davlat universiteti va filiallari |
|     |   | 2. Amaliyotlarni o'tkazish bo'yicha hamkorlik shartnomalarini tuzish.   | oktyabr-noyabr      |                            | Manfaatdor vazirlar idoralari, ilmiy-institutlar, Toshkent davlat universiteti va filiallari  |
|     |   | 3. Ilmiy-tadqiqot muassasalarining yetakchi ilmiy xodimlarini va ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislarini ixtisoslik kafedralarga belgilangan tartibda o'rindosh asosida pedagogik faoliyatga jalb qilish.   | 20-avgust           |                            | Oliy va o'rta ta'lim va ta'lim vazirligi, Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi vazirligi, manfaatdor vazirlar idoralari, ilmiy-institutlar, Toshkent davlat universiteti va filiallari |
|     |   | 4. Ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnika bazalaridan foydalanish hamda innovatsion texnologiyalarni  | o'quv yili davomida | -                          |   |

| T/r | Tadbirlar mazmuni   | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari     | Moliyalashtirish manbalari                                  | Bajarish mas'ullari   |
|-----|---|--|-------------------------|---|---|
|     |   | <p>amaliyotga tatbiq etish maqsadida sayyor dars mashg'ulotlarini tashkil etish.</p> <p>5. Ilmiy-tadqiqot muassasalarining yetakchi ilmiy xodimlarini va ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislari bilan birgalikda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning eng dolzarb yo'nalishlari bo'yicha darsliklar va o'quv adabiyotlarini yaratish va chop etish.</p> | har yili 10-avgustgacha | Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari |   |
| 16. | Toshkent davlat agrar universitetining Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan "Qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqot va o'quv-tajriba stansiyasi" DUK o'rnida "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni tashkil etish. | <p>1. "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni Ustavini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda faoliyatini yo'lga qo'yish.</p>  | 2018-yil 15-iyun        |   | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, davlat agrar universiteti Toshkent viloyati Qibray tumani hokimligi |
| 17. | Toshkent davlat agrar universiteti Andijon filialining Andijon viloyati, Andijon tumanida joylashgan "O'quv-tajriba xo'jaligi" DUK o'rnida "Qishloq xo'jaligida innovatsion   | 1. "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni Ustavini ishlab chiqish va tasdiqlash.  | 2018-yil 15-iyun        |   | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, davlat agrar universiteti Andijon viloyati Andijon tumani hokimligi |



| <b>T/r</b>  | <b>Tadbirlar mazmuni</b>  | <b>Amalga oshirish mexanizmi</b>   | <b>Bajarish muddatlari</b>  | <b>Moliyalashtirish manbalari</b> | <b>Bajarish u mas'ulla</b>   |
|---|---|--|-----------------------------|-----------------------------------|--|
|   | ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni tashkil etish  | 2. "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda faoliyatini yo'lga qo'yish.  | 20-iyul                     |                                   |  |
| 18.   | Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialining Qoraqalpog'iston Respublikasi Xodjayli va Nukus tumanlarida joylashgan "O'quv-tajriba xo'jaligi" DUK o'rnida "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni tashkil etish | 1. "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni Ustavini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2. "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda faoliyatini yo'lga qo'yish. | 2018-yil 15-iyun<br>20-iyul |                                   | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, davlat agrar universiteti Qoraqalpog'iston Respublikasi Xodjayli va Nukus tumanlarida hokimlik |
| 19.   | Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filialining Surxondaryo viloyati Termiz tumanida joylashgan "O'quv-tajriba xo'jaligi" DUK o'rnida "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni tashkil etish                       | 1. "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni Ustavini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2. "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUKni davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda faoliyatini yo'lga qo'yish. | 2018-yil 15-iyun<br>20-iyul |                                   | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, davlat agrar universiteti Surxondaryo viloyati Termiz tumani hokimlik                          |
| <b>IV. Mutaxassis va pedagog xodimlarning malakasini oshirish hamda xalqaro aloqalarni rivojlantirish</b> |   |  |                             |                                   |  |
| 20.   | Xorijiy davlatlarning reytingi yuqori ilmiy va oliy   | 1. Malaka oshirish,  | 2018-yil 10-oktabr          | -                                 | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi,  |

| T/r | Tadbirlar mazmuni  | Amalga oshirish mexanizmi  | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari  | Bajarish u mas'ulla   |
|-----|--|--|---------------------|---|---|
|     | <p>ta'lim muassasalariga doktoranturaga o'qishga, ilmiy xodimlarni stajirovkaga, professor-o'qituvchilarni malaka oshirishga yuborishni tashkillashtirish.</p> | <p>stajirovkaga yuboriladigan talabgorlarning ro'yxatini aniqlash maqsadida tanlov e'lon qilish, ular bilan suhbat o'tkazish, ingliz va rus tillarini bilish darajasini aniqlash.</p>  |                     |   | <p>davlat agrar un va uning filii</p>   |
|     |  | <p>2. Xorijiy oliy ta'lim va ilmiy muassasalariga malaka oshirish, stajirovka o'tash uchun yuboriladigan pedagog va ilmiy xodimlar uchun qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil qilish.</p>   | <p>1-noyabr</p>     |   | <p>Oliy va o'rta ta'lim vaziri Mutaxassislar tayyorlash vatandoshlar muloqot ma</p> |
|     |  | <p>3. Yangi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv jarayonini yuqori saviyada tashkil etish hamda ta'lim sifatini oshirish maqsadida yetakchi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy muassasalariga mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi professor-o'qituvchilardan 11 nafarini qayta tayyorlashga va 3 nafar iqtidorli bitiruvchi talabalarni magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'qishga yuborish.</p> | <p>25-dekabr</p>    | <p>Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot markazi, xalqaro ta'lim grantlari, homiylik mablag'lari va grantlar</p> |   |

| <b>T/r</b> | <b>Tadbirlar mazmuni</b>   | <b>Amalga oshirish mexanizmi</b>   | <b>Bajarish muddatlari</b>      | <b>Moliyalashtirish manbalari</b>   | <b>Bajarish u mas'ullari</b>   |
|------------|--|--|---------------------------------|---|--|
| 21.        | Ta'lim sifatini oshirish maqsadida xorijiy olimlar va mutaxassislarining ma'ruza o'qishlarini tashkil etish, ular tomonidan onlayn rejimida mashg'ulotlar o'tkazishni va sohaning dolzarb muammolari yo'nalishida vebinarlar tashkil etishni yo'lga qo'yish. | 1. Etakchi xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalardan ta'lim yo'nalishlarining o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslariga ma'ruzalar o'qish uchun jalb etiladigan olim va mutaxassislar ro'yxatini tuzish va tasdiqlash. | 2018-yil 15-avgust              | -   | Toshkent davlat universiteti va filiallari   |
|            |  | 2. Xorijdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalarga asosan yuqori salohiyatli professor-o'qituvchilarni o'quv jarayoni va malaka oshirish kurslariga jalb etish.                    | 2018-2019 o'quv yilidan boshlab | Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari, xalqaro ta'lim grantlari, homiylik mablag'lari va grantlar | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Toshkent davlat universiteti va filiallari                    |
|            |  | 3. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar universitetlari ta'lim menejmentining ilg'or me'yorlarini universitet o'quv jarayoniga tatbiq etish maqsadida onlayn video seminarlar, vebinarlar o'tkazish.                        | noyabr-dekabr                   | Oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari, xalqaro ta'lim grantlari, homiylik mablag'lari va grantlar |  |
| 22.        | Mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi professor-o'qituvchilarni qishloq xo'jaligi sohasidagi ilg'or korxonalar va tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bazasida kasbiy  | 1. Qishloq xo'jaligi sohasidagi ilg'or korxonalar va tashkilotlarning ro'yxatlarini shakllantirish.  | 2018-yil 20-avgust              |   | O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazi |

| T/r  | Tadbirlar mazmuni   | Amalga oshirish mexanizmi   | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari  | Bajarish u mas'ullari  |
|--|---|---|---------------------|---|--|
|  | malakalarini oshirishni tashkil etish.  | 2. Mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi professor-o'qituvchilarni sohadagi ilg'or korxonalar va tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bazasida kasbiy malakalarini oshirish rejasini ishlab chiqish.   | 25-avgust           |   | manfaatdor vazirlik idoralari Toshkent davlat universiteti va filiallari   |
|  |   | 3. Ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarning rahbarlari va yetakchi mutaxassislari ishtirokida kafedralarda professor-o'qituvchilar va bitiruvchi kurs talabalari uchun "Ishlab chiqarishning muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalari"ni tashkil qilish rejasini ishlab chiqish. | 5-sentabr           |   |  |
| <b>V. Ta'lim muassasalari va ularning tarkibidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish</b> |   |   |                     |   |  |
| 23.  | Ta'lim sifatini va ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari, ularning filiallari va ilmiy tadqiqot institutlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy o'quv-laboratoriya majmualari, ilmiy laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash hamda o'quv binolari, talabalar turar joylarini qurish, | 1. Toshkent davlat agrar universitetining Termiz filialida 1 ta o'quv binosi va 1 ta talabalar turar joyini qurish, Nukus filiali o'quv binosini mukammal ta'mirlash.   | 2018-yil 1-dekabr   | Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi, homiylik mablag'lari | Oliy va o'rta ta'lim vazirligi, xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi manfaatdor vazirlik idoralari |
|  |   | 2. Toshkent davlat agrar universitetining   | 2018-2019-yillar    |   |  |

